



YUSUF XOS HOJIBNING SUV HAQIDAGI QARASHLARI

AbdufattoyevaAdibaxon

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ulug' adib Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi suv haqida ma'lumotlar ijtimoiy-falsafiy asosda tahlil qilingan. Maqolada adib tomonidan suvni bilim, adolat, yaxshilik haqida fikrlar bilan uyg'unlashtirilib talqin qilingani haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida suv bilan bog'liq ibratli fikrlar, mazmunli o'xshatishlar nisol sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", suv, pand-nasihat, adolat va zulm, olimu ulamolar, bilim, unumdor yerlar.

Аннотация. В данной статье на социально-философском уровне анализируется информация о воде в произведении великого писателя Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу билиг». В статье представлена информация об интерпретации воды писателем в контексте идей о знании, справедливости и добре. Также в произведении Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу билиг» в качестве примеров приводятся поучительные мысли и содержательные аналогии, связанные с водой.

Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, «Кутадгу билиг», вода, наставления, справедливость и угнетение, ученые, знание, плодородные земли..

Abstract. This article analyzes the information about water in the work of the great writer Yusuf Khos Hajib "Kutadgu bilig" on a socio-philosophical basis. The article provides information about the writer's interpretation of water in harmony with ideas about knowledge, justice, and goodness. Also, in the work of Yusuf Khos Hajib "Kutadgu bilig" instructive thoughts and meaningful analogies related to water are presented as examples.

Keywords: Yusuf Khos Hajib, "Kutadgu bilig", water, advice, justice and oppression, scholars, knowledge, fertile lands.

Kirish.

Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida pand-nasihat masalalariga jiddiy e'tibor qaratadi. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida suv haqida ko'plab fikrlarni bildirib o'tgan. "Qutadg'u bilig" asarida adolat suv timsolida obi rahmatga, zulm esa o't-olovga qiyoslanadi. Yusuf Xos Hojib suvni adolatga o'xshatish bilan cheklanmagan. Adib suvni donolarning o'ziga ham qiyoslagan. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Asardagi pand-nasihatlar hozirgi zamon pedagogikasi hamda boshqa falsafiy fahlari uchun muhim manba sifatida saqlanib qolmoqda. Adibning suv haqidagi qarashlari avvalgi tadqiqotlar davomida umuman o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotda mazkur jihatga e'tibor qaratildi.

Adabiyotlar tahlili.

Yusuf Xos Xojib adabiy merosini o'rganish yuzasidan olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, G.Vamberi, V.V.Bartol'd, V.V.Radlov, S.E.Malov, A.Samoylovich, P.M.Melioranskiy, Ye.S.Bertel's, A.A.Valitova, G'.A.Abdurahmonov, A.Fitrat, A.N.Kononov, N.M.Mallaev, A.P.Qayumov, Q.Karimov, Q.Sodiqov va boshqalar tomonidan Yusuf Xos Xojib asarlari tarixiy, falsafiy, lingvistik, umumfilologik, etnografik, pedagogik jihatlarda tadqiq qilingan.

Zamonaviy tadqiqotchilardan J.T. Amrebaeva Yusuf Xos Xojib falsafasining amaliy jihatlariga Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta'siri muammolarini, A.K. Axmetova "Qutadg'u bilig" asarining qadriyatlik va pedagogik ahamiyati xususida tadqiqotlar olib borgan¹. I.Fomkin "Qutadg'u bilig"ning Sharq xalqlari ma'naviy yutuqlarini o'zida birlashtirganini asardagi badiiy janrlar orqali ko'rish mumkinligini tilga oladi². Ammo mutafakkir merosining falsafiy didaktik, ma'naviy-axloqiy jihatlarini yetarlicha tahlil etilmagan. Tadqiqotlarda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi suv haqida qarashlar ijtimoiy-falsafiy asosda tahlil qilishga e'tibor qaratilmagan. Mazkur tadqiqotimizda suv bilan bogliq masalalar asosiy o'rinni egalladi.

Metodologiya.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi suv haqida ijtimoiy-falsafiy qarashlar hamda adib merosidagi so'z, til, odob, muomala, axloqiy madaniyat masalalarini o'rganishda tarixiylik va mantiqiylik, germeneytik tahlil, analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi falsafiy-mantiqiy hamda pedagogik usullardan foydalanildi.

Natijalar.

Nazmiy usulda yozilgan "Qutadg'u bilig" dostoni mavzulari juda keng qamrovli bo'lib, unda inson, uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati, tafakkuri va ma'naviy axloqiga oid masalalar obrazli, badiiy yuksak misralar, she'riy hikmat va maqollarda orqali bayon etiladi. Asardagi to'rtta qahramon – Kuntug'di-adolat, Oyto'ldi- baxt va davlat, O'gdulmish-aql, O'zg'urmish- qanoat timsoli hisoblanadi. Mazkur timsollar asosida adib o'z falsafiy qarashlarini bayon etishga harakat qiladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ikki jihat ko'zga tashlanadi: Birinchisi, axloq bo'lib, u jamiyatlardagi muvozanat hamda osoyishtalikning asosi darajasida izohlanadi. Ayniqsa so'z, odob, muomala masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Ikkinchidan esa, bilim tilga olinib, u insonning qadri va tafakkuri, aql-idroki bilan bog'liq ekanligiga e'tibor qaratiladi. Mutafakkir axloq va bilim tushunchalarini ezgu sifatlar bilan bog'laganda ularni ko'p jihatdan suvga o'xshatadi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi suv haqida ijtimoiy-falsafiy qarashlarning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, o'z davrida suv masalalari adabiy janrda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Turli pand-nasihatlarida suv adolat, bilim, ezgulik, to'kin-sochinlik, xotirjamlik timsoli vazifasini bajargan. Bu kabi qarashlar Yusuf Xos Hojibdan boshqa adiblarning falsafiy qarashlarida ham uchray turadi. Yusuf Xos Hojib

¹ Ахметова А.К. Педагогические взгляды Юсуфа Хас Хаджиба Баласагунского (по поэме "Кутадгу билиг"): Автореф.. канд. пед. наук. - Т, 1990. - 17

² И.Фомкин. Поэтическая картина мира Юсуф Баласагуни .<https://cyberleninka.ru/article/n/poeticheskaya-kartinamira-yusufa-balasaguni-k-950-letiyu-poemy-kutadgu-bilig/viewer>

zamondoshlarining qarashlarini umumlashtirsak, suv hamma davrlarda ham jamiyat a'zolari uchun eng zarur ne'mat, tiriklikning asosi hamda farovonlik ramzi hisoblangan.

Muhokama.Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida suv haqida ba'zi fikrlarni bildirib o'tgan. Adib o'z asarida pand-nasihatlar haqida fikrlar bildirgan bo'lishiga qaramay, ularni suv bilan bog'lagan holatlar ham uchtaydi. "Qutadg'u bilig" asarida adolat suv timsolida obi rahmatga, zulm esa o't-olovga qiyoslanadi. Jumladan, dostonidan quyidagi misralar o'rin olgan:

Adolat obi-rahmat, zuml-chi o'tdir,

Zilol suv oqizib, bu o'tni o'chir.

Misra pand-nasihat shaklida bayon etilgan bo'lib, undan quyidagi xulosani chiqarish mumkin. Suv hayot asosi bo'lib, adolat ham inson hayotining ajralmas qismidir. Bashariyat suvga qanchalik chuqur bog'langan bo'lsa, adolatga ham shunchalik ehtiyoj sezadi. Olov va suv bir-biri bilan qanchalik chiqisha olmasa, adolat va zulm ham shunchalik bir-birini rad etadi. Shu asosda Yusuf Xos Hojib adolatni zilol suv shaklida oqizib olovni o'chirish, binobarin, adolatga suyanib ish yuritgan holda, zulmga zarba berish, uning kelib chiqishi va asoratlariga qarshi kurashish zarurligiga e'tiborni qaratgan.

Yusuf Xos Hojib yana bir o'rinda zulmni olovga adolatni suvga o'xshatgan misralar mavjud bo'lib, u quyidagicha ifodalanadi:

Zulm misli o't, kim yaqinlashsa kuyar,

Adolat — suv, oqsa ne'matlar unar.

Yuqoridagi ikki o'xshatish mantiqan bir-birini takrorlaydi. Shu bilan birga, zulmga yaqinlashish insonni kuydirishini, adolat qay yerga oqsa u yerda ne'matlar unishi ham ajoyib o'xshatmalar hisoblanadi. Zero, adolatning qaysi makonda ustuvor bo'lishi shu yerda tinch-totuvlik, mo'l-ko'lchilik qaror topishiga olib kelishini ta'minlaydi.

Yusuf Xos Hojib suvni adolatga o'xshatish bilan cheklanmagan. Adib suvni donolarning so'ziga ham qiyoslagan. Shu bilan birga, donolarni qaynar buloqqa, ularning so'zlari, pand-nasihatlarini buloqdan muttasil chiqib tugamaydigan zilol suvga o'xshatiladi. Bu yerda olimu ulamolarning jamiyat hayotida tutgan o'rniga e'tibor qaratiladi:

Dononing so'zi yerga obi rahmat,

Suv oqsa zaminda unadi ne'mat.

Bilimli kishining so'zi ozaymas,

Qaynar buloq, zilol suvi kamaymas.

Adib olimu fozillarni yam-yashil o'simliklarga boy unumdor yerlarga qiyoslaydi. Uning qaerga qadam qo'ysa o'sha yerdan lim-lim suv chiqishiga ishora qiladi. Suv o'z navbatida adolat va yaxshilik, tinch-totuvlik va mo'l-ko'lchilikni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosida suv masalasi mana shunday talqin etiladi. Shu o'rinda, suv bilim ma'nosida ham qo'llaniladi. Quyidagi misralar bunga misol bo'la oladi:

Chim o'sgan serob yer kabidir olim,

Qayga oyoq bossa suv chiqar lim-lim.

Bilimsizning ko'ngli qum bosgan sahro,

Daryo oqsa to'lmas, o't unmas aslo.

Yusuf Xos Hojibning suvni bilimga qiyoslash bilan, bilimsiz kishilarning ko'nglini qum bosgan sahroga o'xshatadi.

Xulosa.

Yusuf Xos Hojib o'z asarida suv haqida alohida fikrlar bildirmagan bo'lsada, uning turli ijobiy sifatlarga o'xshatilishi o'rta asrlarda suvning ahamiyati nihoyatda yuqori bo'lganligidan dalolat beradi. Binobarin, suv hayotning asosi bo'lib, uning jamiyat mavjudligidagi o'rni beqiyosdir. Buning ustiga Markaziy Osiyo suv masalasi bo'yicha dunyoning boshqa mintaqalariga nisbatan boy hisoblanmaydi. Mintaqadagi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik taraqqiyoti ham bevosita suv bilan bog'liqdir. Yusuf Xos Hojibning suv haqidagi fikrlari hozirgi global isish davrida o'z ahamiyatini orttirib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. (B.To'xliev nashrga tayyorlagan) . – T.: Yulduzcha, 1990. –187 b.
2. Fitrat. Qutadg'u bilig / Tanlangan asarlar. 5 jildlik. 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2010. – B. 11-15.
3. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006.
4. Otaxo'jaev, A, Q.Sodiqov. Qadimgi yozma yodgorliklar. – Toshkent, Yozuvchi, 2000. - 230 bet
5. To'xliev B. Yusuf Xos Hojib va turkiy xalklar fol'kori. Bayoz" nashriyoti . Toshkent .– 2013. – B. 5
6. Брусиловский Д.А. Юсуф Баласагунский как качественно новый этап межкультурного и межрелигиозного сотрудничества в тюркоязычном мире. // Международный научный журнал. Символ науки. 2016, №3 – С.92-95